

## **HOMONYMOUS CONNECTIONS OF ENGLISH AND UZBEK NAMES OF KITCHEN UTENSILS WITH OTHER WORDS**

**Shaxlo Shuxratovna URALOVA**

independent researcher  
Namangan State University  
Namangan, Uzbekistan

**Poyan Uralovich BAKIROV**

Doctor of Philological Sciences, Professor  
Termez State University  
Termez, Uzbekistan

## **INGLIZ VA O'ZBEK OSHXONA ANJOMLARI NOMLARINING BOSHQA SO'ZLAR BILAN OMONIMIK MUNOSABATLARI**

**Shaxlo Shuxratovna URALOVA**

Mustaqil izlanuvchi  
Namangan davlat universiteti  
Namangan, O'zbekiston

**Poyan Uralovich BAKIROV**

Filologiya fanlari doktori, professor  
Termiz davlat universiteti  
Termiz, O'zbekiston

## **ОМОНИМИЧЕСКИЕ СВЯЗИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАЗВАНИЙ КУХОННОЙ УТВАРИ С ДРУГИМИ СЛОВАМИ**

**Шахло Шухратовна УРАЛОВА**

Самостоятельный исследователь  
Наманганский государственный университети  
Наманган, Узбекистан [shaxlo.uralova@mail.ru](mailto:shaxlo.uralova@mail.ru)

**Поян Уралович БАКИРОВ**

Доктор филологических наук, профессор  
Термезский государственный университет  
Термез, Узбекистан [bakirov.poyan@mail.ru](mailto:bakirov.poyan@mail.ru)

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Uralova Sh.Sh. Bakirov P. U. Ingliz va o'zbek oshxona anjomlari nomlarining boshqa so'zlar bilan omonimik munosabatlari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 100-112.

<https://doi.org/10.36078/1762271406>

**Abstract.** This article focuses on the comparative analysis of homonymous relations based on the names of kitchen utensils in the English and Uzbek languages. The research studies the correspondence between lexical units denoting household items and kitchen utensils and other words that differ in form and meaning. The study classifies homonyms into full, partial and grammatical types. The study identifies the reasons for the emergence of homonymy, such as random sound correspondences, historical changes, and lexical borrowings. Specific examples illustrate how different parts of speech form homonymous models when English and Uzbek names of kitchen utensils develop homonymous relations

**Received:** September 15, 2025

**Accepted:** October 17, 2025

**Published:** October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



with other words. The example of the English language shows cases when the names of kitchen utensils can denote such concepts as a part of the human body, sports, or names of trees, and in the Uzbek language such concepts as a natural phenomenon, a medical concept, a musical instrument, or animals. It is proven that in the English language, unlike the Uzbek language, homonymous pairs are formed by the transition of a word from one part of speech to another without any changes. The article emphasizes that studying of homonymy in the lexical field of kitchen utensils, an essential part of everyday vocabulary, has both theoretical and practical significance. The results maybe valuable for lexicology, lexicography, and teaching foreign languages, as well as for a deeper understanding of the cultural and linguistic features of both nations.

**Keywords:** English language; Uzbek language; names of kitchen utensils; vocabulary; homonyms; homonymous models; origin of homonyms; parts of speech.

**Annotatsiya.** Maqola ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlari asosida yuzaga keladigan omonimik munosabatlarning chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan. Ilmiy ishda uy-ro'zg'or buyumlari va oshxona anjomlarini ifodalovchi leksik birliklarning shaklan butunlay boshqa ma'noga ega bo'lgan boshqa so'zlar bilan mos kelishi o'rganilgan. Omonimlarning to'liq, qisman va grammatik turlari ko'rib chiqilgan va tasniflangan. O'rganilayotgan so'zlarning semantik tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Omonimiyaning paydo bo'lish sabablarini (tasodifiy tovush mosligi, tildagi tarixiy o'zgarishlar, so'z o'zlashtirish jarayoni) aniqlangan. Ingliz va o'zbek oshxona anjomlari nomlari boshqa so'zlar bilan omonimik munosabatga kirishganda so'z turkumlari bo'yicha qanday omonimik modellarni tashkil etishi aniq misollar yordamida tahlil qilingan. Ingliz tili misolida bir oshxona anjomlari nomlarining inson tana a'zosi, sport o'yini, daraxt nomlari bilan, o'zbek tilida tabiat hodisasi, tibbiyotga doir tushuncha, musiqa asbobi, hayvon nomlari kabi tushunchani anglatishi mumkin bo'lgan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Ingliz tilida, o'zbek tilidan farqli o'laroq, omonimik juftliklarning so'zning hech qanday o'zgarishsiz bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish yo'li bilan hosil bo'lishi dalillangan. Maqolada maishiy leksikaning asosiy qismi bo'lgan oshxona anjomlari sohasida omonimiyani o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egaligi ta'kidlangan. Olingan natijalar leksikologiya, leksikografiya, xorijiy tillarni o'qitish, shuningdek, xalqlarning madaniy va til xususiyatlarini chuqurroq tushunish uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili; o'zbek tili; oshxona anjomlari nomlari; leksika; omonimlar; omonimik modellar; omonimlarning paydo bo'lishi; so'z turkumlari.

**Аннотация.** Статья посвящена сопоставительному анализу омонимических отношений, возникающих на основе названий кухонной утвари в английском и узбекском языках. Изучено соответствие лексических единиц, обозначающих предметы домашнего обихода и кухонную утварь, с другими словами, имеющими совершенно иное значение по форме и написанию. В работе рассмотрены и расклассифицированы полные, частичные и грамматические типы омонимов. Особое внимание уделяется семантическому анализу изучаемых слов. Выявлены причины возникновения омонимии (случайные звуковые соответствия, исторические языковые изменения, процесс заимствования слов). На конкретных примерах анализируется, какие омонимические модели образуются по

частям речи, когда английские и узбекские названия кухонной утвари вступают в омонимические отношения с другими словами. На примере английского языка показаны случаи, когда названия кухонных принадлежностей могут обозначать такие понятия, как часть тела человека, спортивная игра, названия деревьев, а в узбекском языке — такие понятия, как природное явление, медицинское понятие, музыкальный инструмент, названия животных. Доказано, что в английском языке, в отличие от узбекского, омонимичные пары образуются путем перехода слова из одной части речи в другую без каких-либо изменений. В статье подчеркивается, что изучение омонимии в области кухонной утвари, которая является основной частью бытовой лексики, имеет не только теоретическое, но и практическое значение. Полученные результаты могут быть полезны для лексикологии, лексикографии, преподавания иностранных языков, а также для более глубокого понимания культурных и языковых особенностей народов.

**Ключевые слова:** английский язык; узбекский язык; названия кухонной утвари; лексика; омонимы; омонимические модели; происхождение омонимов; части речи.

### Kirish

Globallashuv sharoitida turli tillar va madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglash zarurati ortib bormoqda. Omonimiyani o'rganish tillararo muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash va tushuntirishga yordam beradi. Omonimiya leksikologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ingliz va o'zbek kabi turli tizimli tillarda bu hodisani chog'ishtirma o'rganish omonimiyaning tabiati haqidagi nazariy tushunchalarni kengaytirishga imkon beradi. Yuqoridagi holatlar ilmiy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi oshxona anjomlari nomlarining leksik guruhidagi omonimik munosabatlarni aniqlash, tavsiflash, ushbu omonimik munosabatlarni ikki turli tizimli, noqardosh tillarda chog'ishtirma tahlilini amalga oshirish, mazkur tematik guruhda omonimiyaning yuzaga kelish mexanizmlari va sabablarini aniqlashdan iborat.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlarini ifodalovchi leksik birliklar — til materiallarini to'plash va tizimlashtirish; to'plangan omonimlarni har bir tilda turlari (to'liq, qisman, grammatik) bo'yicha tasniflash; omonimlarning semantik strukturasi o'rganish; har ikki tildagi omonimiyaning so'z turkumlari bo'yicha modellari va kelib chiqish mabalarini chog'ishtirma tahlil qilish.

Ilmiy ishga tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlari tanlangan.

Ilmiy ishning predmetini oshxona anjomlari nomlari bilan ingliz va o'zbek tillaridagi boshqa leksik birliklar o'rtasida yuzaga keladigan omonimik munosabatlar, chog'ishtirilayotgan tillarda omonimiyaning semantik, tarkibiy etimologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tilshunoslikda qator usullarning birgalikda qo'llanilishi tadqiqotning to'liq va xolisligini ta'minlashning asosidir.

Ushbu ilmiy ishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: qiyosiy-tarixiy (noqardosh tillar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish maqsadida), sinxron lingvistik tavsif (ingliz va o'zbek tillarining hozirgi kundagi leksik (lug'aviy) tizimini izohlash maqsadida), diaxronik (ingliz va o'zbek tillarida omonimik so'zlarning paydo bo'lishi, ma'nosining o'zgarishi yoki yo'qolib ketishi, grammatik shakllarning rivojlanishini tadqiq etish maqsadida), leksikografik (so'zlarning ma'nolari, ularning qo'llanilish doirasi, kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida). O'rganilayotgan tillarning leksik-semantik tarkibida tadqiq etilayotgan guruh so'zlarini tahlil qilishda komponent tahlil usuli qo'llanilgan. Oshxona anjomlari nomlarining manba tillardagi semantik xususiyatlarini aniqlashda chog'ishtirish usulidan keng foydalanildi. Omonimlarning har bir tilda qo'llanish va lug'atlarda uchrash chastotasi statistik usul asosida aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: oshxona anjomlari nomlarining ingliz va o'zbek tillaridagi omonimik munosabatlari ilk bor kompleks chog'ishtirma tahlil qilindi; ushbu tematik guruhdagi omonimik qatorlar tasniflandi, shuningdek, ularning har bir tildagi turlari va xususiyatlari aniqlandi; har ikkala tilda ham omonimlarning yuzaga kelish mexanizmlari va sabablari, shuningdek, ularning so'z turkumlari bo'yicha modellari aniqlandi, tahlilga tortilgan leksik guruhda omonimlarning semantik, strukturaviy va etimologik xususiyatlari tahlil qilindi.

Oshxona anjomlari insoniyat tarixida katta rol o'ynagan, ular har bir uyda mavjud. Kundalik hayotni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ibtidoiy odamlar pishirish uchun eng oddiy vositalardan foydalanganlar. Ular toshlarga o'tkir suyaklarni biriktirib, birinchi pichoqlarni yaratdilar. Yog'och tayoqlar qoshiq vazifasini bajargan. Hayvonlar terilari ovqatni saqlash va pishirish uchun idish sifatida ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan bronza va temir asboblari paydo bo'ldi. Qadimgi Misrda mis qozon va loydan yasalgan idishlar ishlatilgan. Qadimgi yunonlar va rimliklar keramika va bronza idishlardan foydalanganlar. Shuningdek, ular ochiq olovda pishirishga imkon beradigan mangallarni ixtiro qilishdi. O'rta asrlar oshxona anjomlariga innovatsiya olib kirdi. Ushbu davrda qoshiq va pichoq kabi turli oshxona anjomlarining foydali tomonlari takomillashtirildi [aksinia.ru].

Ko'rinib turibdiki, oshxona anjomlari oddiy tosh asboblardan zamonaviy jihozlarga qadar uzoq yo'lni bosib o'tgan.

“O'rta asrlardan boshlab va XIX asr oxirigacha u yoki bu idish-tovoqlarga ega bo'lish va kundalik hayotda ulardan foydalanish farovonlik darajasiga (idishlar har doim moddiy farovonlikning mezonini bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi), shuningdek, egasining tarbiyasi va ma'lumotiga bog'liq bo'lgan” [Ivanova 2011: 155].

A. Inchning fikricha, Angliyada tarixan shunday shakllanganki, qimmatbaho metallar har doim boylik belgisi hisoblangan. Kumushdan tayyorlangan oshxona idish va anjomlari buni namoyish qilishning bir usuli edi. Oilaviy kumush shu qadar qadrlanganki, uni maxsus omborxonalarda saqlashgan [Inch 2010: 51]. Mutaxassis tomonidan *qoshiq, vilka, pichoq, likopcha, kosacha, taqsimcha, qadah, ryumka,*

*stakanlar, dasturxon, sochiq (salfetka), jihozlar* tagiga qo'yiladigan to'shakchalarning har xil turlari keltirilgan.

A. Ch. Oorjakning ta'kidlashicha, "turkiy tilshunoslikda idish va uy anjomlarini ifodalovchi leksik birliklar hech kim tomonidan maxsus o'rganilmagan, shuning uchun hali ham monografik tadqiqotlar mavjud emas, chunki bu leksik-semantik so'zlar guruhi muayyan xalqning maishiy lug'atini o'rganishga bag'ishlangan asarlarning bir qismi sifatida ko'rib chiqilgan" [Oorjak 2022: 3].

Lekin o'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek olimlari tomonidan leksikaning turli tematik guruhlariga mansub so'zlarni har tomonlama tadqiq qilish ishlari boshlangan edi. Maishiy leksika bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki ishlardan biri S. Ibrohimovning monografiyasidir [Ibrohimov 1959]. O'zbek tilida chevarchilik leksikasi D. Dadaxonov [Dadaxonova 1953], amaliy san'at leksikasi T. Tursunov [Tursunova 1978], kiyim-kechak nomlari M. Asomiddinova [Asomiddinova 1981] tomonidan har tomonlama tahlil qilingan.

XXI asrda ushbu yo'nalishdagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

Sh. Usmonova tomonidan oltoy tillari (jumladan o'zbek tili) va shevalaridagi oshxona anjomlarining semantik-funksional, fonetik va struktur-morfologik aspektlarda tahlil qilingan [Usmonova 1990: 17–75].

I. Ismoilov, K. Meliyev va boshqa olimlar tomonidan O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillarda uy-ro'zg'or buyumlari, mevali daraxtlar va poliz ekinlariga xos leksik boylik qiyosiy-tarixiy yo'nalishda lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etilgan [Ismoilov, Meliyev 1990: 3].

O'zbek tilining maishiy leksikasini tashkil etuvchi so'zlarning etimologiyasi va grammatik tuzilishi alohida monografik tarzda L. X. G'afurova tomonidan o'rganilgan. Mutaxassis tomonidan tahlil qilingan leksik-semantik guruhlardan biri oshxona buyumlari nomlaridir [Gafurova 1991]. M. Fayzullayeva "O'zbek taomlari bilan bog'liq an'analar" monografiyasida ta'kidlashicha, "har bir xalqning moddiy va ma'naviy xususiyatlari ularning xo'jalik iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ijtimoiy tarixiy qonuniyat hisoblanadi. Masalan, oddiy bir xo'jalikni yuritishda ro'zg'or uchun zarur bo'lgan ko'plab oshxona jihozlari — asbob-anjomlar kerak bo'ladi" [Fayzullayeva 2010: 90].

X. X. Berdiyevning ilmiy tadqiqotida sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan soha leksikasining tadqiqi, terminlarning lingvistik tadqiqot obyekti sifatidagi o'ziga xosligi, xalqimizning ma'naviyati, urf-odatlarini yoritib berishdagi ahamiyati, tilshunoslik bo'limlariga oid nazariy fikrlarni to'ldirishi, ularga aniqlik kiritishi masalalari yoritilgan [Berdiyev 2017: 9].

Kulinaronimlar, ya'ni ovqat nomlari bilan shug'ullangan F. A. Mamatqulova ularni lingvokulturologik xususiyatiga ko'ra "oshxona anjomlari — asboblar" tematik guruhini ajratdi, elektr jihozlari, idish-tovoqlar, idishlar, dasturxon buyumlari va stolni bezash uchun buyumlar, mebel (*tova, stakan, vilka, dasturxon, tish kovlagich, ovqat uchun javonlar, lagan, tutqich, taxtakash, elak, qahva maydalagich, go'sht maydalagich, mikser, elektr pechka*) kabi nomlarni tahlilga tortgan [Mamatqulova 2021: 214].

O'zbek tilidagi "idish" nomlarini bildiruvchi leksemalar tizimi mavjud leksikologik tadqiqotlarda sistematik tarzda emas, balki epizodik ko'rinishlarda ham ilmiy o'rganilgan [Ne'matov, Rasulov 1995: 19]. Turli ilmiy maqsad va vazifalar ularning ayrim jihatlariga e'tibor qaratishni taqozo qilgan. Biroq uni yaxlit lisoniy sistema sifatida o'rganishga endi qo'l urilmoqda.

Maishiy leksikaning bir qismi hisoblangan oshxona anjomlari bo'yicha ingliz va o'zbek tilshunosligida olib borilgan ilmiy ishlar obzori shuni ko'rsatadiki, bu tillarda ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar asosan bir til yoki bir necha qardosh tillar miqyosida ushbu turkum leksemalar leksik-semantik, etimologik va grammatik nuqtayi nazardan olib borilgan. Lekin bu yo'nalishda noqardosh, har xil tizimli, xususan, ingliz va o'zbek tillari maishiy leksikasi chog'ishtirma aspektda tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan va u o'z yechimini kutmoqda.

Omonimiya muammosi tilshunoslik fani kabi qadimiydir. Omonimlar shaklan bir xil, lekin har xil ma'noli so'zlardir. P. U. Bakirovning fikricha, "omonimlar tovush jihatdan mos kelishi, bir xil shaklga ega bo'lishi, bir so'z turkumiga tegishli bo'lishi, ammo hech qanday umumiy ma'no elementlariga ega bo'lmasligi kerak" [Bakirov 2022: 72].

Omonimiya muammosi nafaqat tilning asosiy birligi — so'zlarning chegaralarini belgilash bilan bog'liq, balki u amaliy leksikografiyaning eng qiyin masalalaridan biri bo'lgan muhim nazariy muammodir. Tilda omonimiyaning ahamiyati, o'rni va roli haqida turli fikrlar bor. Ba'zi tilshunoslar omonimlarning shakllanishi tilning lug'atini boyitish deb hisoblasa, boshqalari omonimiyani tilning "o'lik yarasi" deb atashadi. Omonimiya A. A. Reformaskiy, A.N. Gvozdev va boshqa bir qator tilshunoslar tomonidan salbiy hodisa, "tushunishga to'siq", "til nuqsoni" sifatida qaraladi. Boshqa olimlar, masalan, L. A. Bulaxovskiy, O. S. Axmanova, R.A. Budagov, garchi ular omonimiya ba'zi hollarda nutq va matnni tushunishni qiyinlashtirishi mumkinligini tan olsalar ham, bu tilning "patologiyasi" (normal tabiiy holatni yo'qotish, g'ayritabiiylik — Sh.Sh.) emas, deb hisoblashadi. Omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida keng tarqalganligi sababli, ushbu hodisaning tavsifi hamda uni ma'lum bir tilda tahlil qilish va baholashni o'z ichiga olgan juda ko'p adabiyotlar mavjud [Golovnya 2007: 9]. O'zbek olimi Sh.Safarovga ko'ra, omonimiya — ma'lum bir til birliklarining shaklan bir xil, lekin turli ma'noni ifodalashi. Omonimiya qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin. Shunga binoan getronim (qisman omonimiya), omofon va omograflar farqlanadi. Bundan tashqari, omonimik munosabatlar tilning qaysi sathida yuzaga kelishiga nisbatan leksik, grammatik va sintaktik omonimlar ham ajratiladi [Safarov 2023: 213].

### Asosiy qism

Tahlilga tortilgan ingliz omonimik so'zlarining ma'nolari quyidagi lug'atlar yordamida aniqlandi: Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. Eighth edition (Oxford: University Press, 2010. — 1796 p.); Самый полный англо-русский русско-английский словарь с современной транскрипцией (Москва: Издательство АСТ, 2016. — 800 с.).



Inglizcha oshxona anjomlari nomlari 11 holatda ingliz tilining o'z so'zlari va o'zlashma so'zlar bilan omonimik munosabatga kirishadi: *Stirrer*<sup>1</sup> — ot: “oddiy ichimliklarni ko'pirtirish yoki gazli ichimliklarni gazini chiqarib yuborishda ishlatiladigan tayoqcha”. *Stirrer*<sup>2</sup> — ot: “chaqimchi, ya'ni boshqa odamlar orasida muammo tug'dirishni yoqtiradigan odam” ma'nosiga ega.

*Bowl*<sup>1</sup> — ot: “ovqat yoki suyuqlikni saqlash va iste'mol qilish uchun ishlatiladigan chuqur dumaloq idish (kosa)”. Masalan, “a sugar bowl” — “shakardon”, “a fruit bowl” — “meva likopchasi”, “a soup bowl” — “sho'rva kosasi”. So'zning “qadah” ma'nosi ham mavjud”. Shuningdek, *bowl*<sup>1</sup> leksemasi “vaza, guldun” ma'nosini ham beradi. *Bowl*<sup>2</sup> — ot: “shar”, “soqqa o'yini”. Inglizcha “game of bowls” (“boulz o'yini”) — Britaniya mamlakatlarida keng tarqalgan an'anaviy ingliz sport o'yini. O'yinning maqsadi — boulz, ya'ni assimetrik sharlarni iloji boricha “djek” yoki “kitti” deb ataluvchi kichik oq shar tomonga yumalatish. O'yin yumshoq maysali maydonda o'tkaziladi. Ingliz tilida “Rose Bowl” “atirgul kosasi” iborasi ham mavjud. *Bowl*<sup>3</sup> — fe'l: “yumalatmoq”. Ingliz tilida “to roll a ball in the games of bowls” deganda “boulting o'yinlarida sharni yumalatish” tushuniladi.

*Plate*<sup>1</sup> — ot: 1) tarelka, likop; side plate “non uchun likop”; 2) ovqat; cold plate “sovugan ovqat”; 3) stol atrofidagi shaxs, zot; 4) plita (toshtaxta), metallning listi (taxtasi), tilimi; po'lat tilimi; armour plate “bron (zirh) sifatida ishlatiladigan plita (oshtaxta)”; 5) oshxona kumush idishlari; metall idishlar (kumush yoki oltin); silver plate “kumush idishlar”; 6) poligrafik termin: muhr qolipi; ottisk (bosma, bosilgan nusxa); 7) gravyura (o'yma naqsh), estamp (bosma rasm); 8) familiya yozilgan eshikka o'rnatilgan kichkina, yupqa taxta. *Plate*<sup>2</sup> — fe'l: 1) texnikaga oid: metall listi (taxtasi) bilan qoplamoq; 2) metallarga zarhal bermoq, metal bilan qoplamoq; 3) kumush, oltin bilan qoplamoq.

*Cup*<sup>1</sup> — ot: 1) choy, kofe va boshqalarni ichish uchun ishlatiladigan ushlagichli piyola shaklidagi kichik idish; kosa, qadah; 2) sportga oid: ikki tutqichli kubok; 3) sharob; mayxo'rlik; 4) kryushon (oq vinoga rom yoki konyak hamda ho'l meva shirasi qo'shib tayyorlanadigan ichimlik); 5) qismat, taqdir. *Cup*<sup>2</sup> — fe'l: 1) kosa shaklini berish; 2) hovuch yoki kichkina kosa shaklida taxlamoq; 3) tibbiyotga oid: banka qo'ymoq.

*Jar*<sup>1</sup> — ot: “banka; ko'za; idish”. *Jar*<sup>2</sup> — ot: 1) disgarmoniya (hamohang emaslik); 2) janjal, tartibsizlik; 3) hayajon; shok; 4) zirillagan (dirillagan) tovush; 5) tebranish, zirillash (tirillash). *Jar*<sup>3</sup> — fe'l: 1) g'azablantirmoq, qiyshaytirmoq; 2) janjallashmoq; 3) garmoniyaning buzmoq; to'g'ri kelmaslik; 4) esankiratib qo'ymoq.

*Mug*<sup>1</sup> — ot: 1) krujka; 2) sleng: bashara; 3) sleng: og'iz; 4) sleng: go'l odam; anqov (befahm); valakisalang, ahmoq. *Mug*<sup>2</sup> — fe'l: “o'g'irlash maqsadida hujum qilmoq”. *Mug*<sup>3</sup> — fe'l: “o'rganishga urinmoq”.

*Pitcher*<sup>1</sup> — ot: 1) ko'za; 2) botanikaga oid: zaharli hasharotli o'simliklar gul kosasi. *Pitcher*<sup>2</sup> — ot: 1) pitcher, ya'ni beysbol o'yinida to'pni uzatuvchi; 2) ko'cha savdogari (u odatda aniq bir joyda savdo qiladi); 3) maxsus: qirqilgan tosh shaklidagi qurilish materiali, bruschatka.

Box<sup>1</sup> — ot: 1) quti; yashik; sandiq; cardboard box karton korobka; ballot box saylov qutisi; 2) to'siqli kichik bo'lim; 3) teatr lojasi; 4) otxonadagi har bir bo'lim, katak; 5) uycha (ovchilar uychasi); 6) maslahatchilar kursisi; 7) rojdestvo sovg'asi. Box<sup>2</sup> — fe'l: 1) qutiga qo'ymoq, joylashtirmoq; 2) otlarni otxonaga joylashtirmoq; 3) ramka bilan hoshiyalamoq; 4) sudga hujjatlar topshirmoq. Box<sup>3</sup> — ot: “qo'l, musht bilan zarba”; a box on the ear tarsaki, shapaloq. Box<sup>4</sup> — fe'l: 1) sportga oid: boks tushmoq; 2) qo'l bilan urmoq; to box the ear tarsaki urmoq. Box<sup>5</sup> — ot: sekin o'suvchi, doimiy yashil Kavkaz palmasi, ya'ni samshit daraxtining nomi.

Butt<sup>1</sup> — ot: 1) sop, dasta; miltiq va boshqa narsalarning qo'ndog'i; 2) chekib tashlangan papiros; sham qoldig'i; 3) amerika slengi: ket (orqa). Butt<sup>2</sup> — fe'l: 1) zich qilib ulamoq; yonma-yon joylashtirmoq; 2) taxta va shu kabilarning oxirini kesmoq. Butt<sup>3</sup> — ot: 1) kulgi (masxara) obyekt; 2) otish maydoni; 3) maqsad, nishon. Butt<sup>4</sup> — ot: 1) itarish, odatda bosh, shoxlar bilan zarba; 2) sportga oid: bosh bilan zarba. Butt<sup>5</sup> — fe'l: 1) bosh bilan urmoq; suzmoq; 2) so'zlashuv tilida: o'zini urib olmoq; 3) boshqalardan ajralib turmoq. Butt<sup>6</sup> — ot: 1) sharob, pivolar uchun katta bochka; 2) bochka o'lchov birligi sifatida (490, 96 l. hajmda).

Mould<sup>1</sup> — ot: 1) quyish qolipi; 2) puding, jele va boshqalar uchun qolipcha. Mould<sup>2</sup> — fe'l: 1) qolipga quymoq, qoliplamoq; 2) yasamoq, yopishtirmoq; 3) ulgu bo'yicha bajarmoq. Mould<sup>3</sup> — ot: “mog'or, mog'orli zamburug'”. Mould<sup>4</sup> — fe'l: 1) mog'or bilan qoplanmoq; mog'orlanmoq; 2) qo'llanishdan qolmoq.

Pan<sup>1</sup> — ot: 1) kastyulka; 2) kosa; 3) tos, jom, tog'ora, tunuka tova, unitaz; 4) palla (tarozi). Pan<sup>2</sup> — fe'l: 1) tarkibida oltin bo'lgan qumlarini yuvmoq; 2) so'zlashuv tilida: qattiq tanqid ostiga olmoq. Pan<sup>3</sup> — fe'l: “panorama yaratmoq”. Pan<sup>4</sup> — ot: “texnikaga oid: poddon, temir tog'ora (oltin va boshqa foydali minerallarni yuvishda qo'llaniladi)”.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz oshxona anjomlari nomlari boshqa so'zlar bilan omonimik munosabatga kirishganda so'z turkumlari bo'yicha quyidagi omonimik modellarni tashkil etadi:

- 1) Ot<sup>1</sup>, ot<sup>2</sup>: stirrer<sup>1</sup>, stirrer<sup>2</sup>; pitcher<sup>1</sup>, pitcher<sup>2</sup>.
- 2) Ot<sup>1</sup>, fe'l<sup>2</sup>: plate<sup>1</sup>, plate<sup>2</sup>; cup<sup>1</sup>, cup<sup>2</sup>.
- 3) Ot<sup>1</sup>, ot<sup>2</sup>, fe'l<sup>3</sup>: bowl<sup>1</sup>, bowl<sup>2</sup>, bowl<sup>3</sup>; jar<sup>1</sup>, jar<sup>2</sup>, jar<sup>3</sup>;
- 4) Ot<sup>1</sup>, fe'l<sup>2</sup>, fe'l<sup>3</sup>: mug<sup>1</sup>, mug<sup>2</sup>, mug<sup>3</sup>; pan<sup>1</sup>, pan<sup>2</sup>, pan<sup>3</sup>;
- 5) Ot<sup>1</sup>, fe'l<sup>2</sup>, ot<sup>3</sup>, fe'l<sup>4</sup>: mould<sup>1</sup>, mould<sup>2</sup>, mould<sup>3</sup>, mould<sup>4</sup>.
- 6) Ot<sup>1</sup>, fe'l<sup>2</sup>, ot<sup>3</sup>, fe'l<sup>4</sup>, ot<sup>5</sup>: box<sup>1</sup>, box<sup>2</sup>, box<sup>3</sup>, box<sup>4</sup>, box<sup>5</sup>.
- 7) Ot<sup>1</sup>, fe'l<sup>2</sup>, ot<sup>3</sup>, ot<sup>4</sup>, fe'l<sup>5</sup>, ot<sup>6</sup>: butt<sup>1</sup>, butt<sup>2</sup>, butt<sup>3</sup>, butt<sup>4</sup>, butt<sup>5</sup>, butt<sup>6</sup>.

Ma'lumki, tilda omonimlar turli yo'llar bilan paydo bo'ladi. Ingliz tili ham bundan mustasno emas.



1. Ingliz tilining o'z so'zlari omonimik qator tashkil etadi: stirrer<sup>1</sup> (ing.) ("gazli ichimliklarni gazini chiqarib yuborishda ishlatiladigan tayoqcha"), stirrer<sup>2</sup> (ing.) ("chaqimchi"); cup<sup>1</sup> (ing.) ("ushlagichli piyola shaklidagi idish") (ing.), cup<sup>2</sup> (ing.) ("sport kubogi"); box<sup>1</sup> (ing.) ("quti, sandiq"), box<sup>2</sup> (ing.) ("musht bilan zarba"), box<sup>3</sup> (ing.) ("samshit butasi"), box<sup>4</sup> (ing.) (teatr lojasi), box<sup>5</sup> (ing.).

2. Ingliz o'z so'zlari va boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksik birliklar omonimik qatorni tashkil etadi: pitcher<sup>1</sup> (frans.) ("ko'za"), pitcher<sup>2</sup> (ingl.) ("beysbolchi"); bowl<sup>1</sup> (ing.) ("kosa"), bowl<sup>2</sup> (frans.) ("boulz o'yini"), bowl<sup>3</sup> (ing.) ("yumalatmoq"); jar<sup>1</sup> (frans.) ("banka"), jar<sup>2</sup> (ing.) ("janjal, tartibsizlik"), jar<sup>3</sup> (ing.) ("g'azablantirmoq"); mug<sup>1</sup> (skand.) ("krujka"), mug<sup>2</sup> (ing.) ("hujum qilmoq"), mug<sup>3</sup> (ing.) ("o'rganishga urinmoq"); pan<sup>1</sup> (ing.) ("tova"), pan<sup>2</sup> (ing.) ("tanqid qilmoq"), pan<sup>3</sup> (ispan.) ("oltinni yuvish uchun tog'ora"); mould<sup>1</sup> (ing.) ("mog'or"), mould<sup>2</sup> (frans.) ("qolip"), mould<sup>3</sup> (ing.) ("mog'orli zamburug'"), mould<sup>4</sup> (frans.) (shakl bermoq), butt<sup>1</sup> (frans.) ("qo'ndiq"), butt<sup>2</sup> (frans.) ("bochka"), butt<sup>3</sup> (ing. "cigarette butt" birikmasining qisqarishi) ("papiros qoldig'i"), butt<sup>4</sup> (frans.) ("nishon"), butt<sup>5</sup> (ing.) ("odam dumbasi"), butt<sup>6</sup> (ing.) ("suzmoq, bosh bilan itarmoq").

3. Ingliz tiliga o'zlashtirilgan so'zlar o'zaro omonimik qatorni tashkil etadi: plat<sup>e1</sup> (frans.) ("tarelka, likopcha"), plate<sup>2</sup> (frans.) ("metall list bilan qoplamog").

Tadqiq etilgan o'zbek omonimik so'zlarining ma'nolari quyidagi lug'atlar orqali izohlandi: O'zbek tilining izohli lug'ati (Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2020, — Ж. I — V); Inglizcha-o'zbekcha / O'zbekcha-inglizcha lug'at. 100 000 so'z va iboralar (Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2019. — 896 b.).

O'zbek tilida omonimlar ingliz tiliga nisbatan ko'proq. Ularning soni 31 ta omonimik qator: Ayoq<sup>1</sup> — "oyoq". Ayoq<sup>2</sup> — "kosa, piyola, qadah".

Banka<sup>1</sup> — "aynan: bank". Banka<sup>2</sup> — 1) shisha, tunuka yoki plastmassadan yasalgan, odatda silindrik shaklga ega bo'lgan idish; 2) tibbiyotga oid: kishi tanasining kasal joyiga qo'yiladigan og'zi tor, cheti qalin va silliq, noksimon stakancha.

Baqir<sup>1</sup> — "qizil mis". Baqir<sup>2</sup> — "misdan zarb qilingan chaqa pul". Baqir<sup>3</sup> — shevaga xos so'z: "paqir, chelak".

Bodiya<sup>1</sup> — kitobiy eskirgan so'z: "sahro, cho'l, biyobon". Bodiya<sup>2</sup> — "tagi baland, qirg'og'i tik, katta sopol idish (lagan)".

Bo'ta<sup>1</sup> — "tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq". Bo'ta<sup>2</sup> — eskirgan so'z: "oltin, kumush, mis va sh. k.ni eritish uchun ishlatiladigan qadimiy asbob, dumaloq kosacha".

Dabba<sup>1</sup> — ichki a'zolarning o'zi joylashib turgan bo'shliqdan shu bo'shliq devori orqali tashqariga turtib chiqishi yoki pastga — moyakdonga tushishidan iborat kasallik; churra". Dabba<sup>2</sup> — "yog' saqlashga mo'ljallangan xum yoki temirdan yasalgan idish".

Dam<sup>1</sup> — "nafas, tin". Dam<sup>2</sup> — "on, lahza; kez, payt". Dam<sup>3</sup> — "temirchilarning qo'ra yoki o'choqdagi ko'mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbobi". Dam<sup>4</sup> — "chet, qirg'oq". Dam<sup>5</sup> — "asbobning kesadigan, o'tkir tomoni, tig'i; tig'".

Dosh<sup>1</sup> — “qozon, doshqozon”. Dosh<sup>2</sup> soʻzi “dosh bermoq” birikmasi tarkibida uchraydi. Birikmaning maʼnosi: “chidam bermoq, bardosh bermoq, chidamoq”.

Dumcha<sup>1</sup> — “dum” soʻzining kichraytirilgan shakli. Dumcha<sup>2</sup> — shevaga xos soʻz: “dastasiz, xumchasimon kichkina idish”.

Dupoya<sup>1</sup> — “yamoqchi ustalarning uchi qayrilgan temir asbobi”. Dupoya<sup>2</sup> — “miskarlik, naqshgarlikda ishlatiladigan sandonning uzun, dumli turi”.

Doʻl<sup>1</sup> — “yumaloq va boshqa turli shakl, turli kattalikdagi muz parchalaridan iborat atmosfera yogʻini”. Doʻl<sup>2</sup> — “tegirmon toshi tepasiga oʻrnatilgan piramida shaklidagi idish, xampa (tortiladigan don-doʻlga solinib, undan kosa orqali toshga tushadi)”. Doʻl<sup>3</sup> — “urush maydonlarida yoki ulkan tantanalarda chalinadigan katta nogʻora”.

Yom<sup>1</sup> — “choparlar, yoʻlovchilar qoʻnadigan va ot almashtiradigan joy; bekat”. Yom<sup>2</sup> — “katta, ulkan xum”.

Juvda<sup>1</sup> — shevaga xos soʻz: “tuyaning boʻyni va tizzasidagi jun”. Juvda<sup>2</sup> — shevaga xos soʻz: “boltaning sop oʻrnatiladigan tomoni”.

Idish<sup>1</sup> — “narsa solish (solib quyish) uchun ishlatiladigan uy-roʻzgʻor yoki xoʻjalik buyumi”. Idish<sup>2</sup> — “Hind-yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhiga mansub, yevropalik yahudiylarning aloqadorlashuvida qoʻllanuvchi til”.

Kub<sup>1</sup> — “hamma tomoni teng kvadratdan iborat oltiyoqli geometrik shakl; shunday shakldagi narsa”. Kub<sup>2</sup> — “suyuqliklarni haydash, qaynatish yoki saqlash uchun ishlatiladigan silindr shaklidagi katta yopiq, idish”.

Kuva<sup>1</sup> — “boʻgʻzi siqiqroq uzun sopol idish (suv, sut va sh. k. suyuqliklar solish uchun ishlatiladi)”. Kuva<sup>2</sup> — “kosibchilikda charmni urib tekislash, choʻzish va sh. k. uchun ishlatiladigan ogʻir temir asbob”.

1. Oʻzbek tilining oʻz soʻzlari omonimik qator tashkil etadi: kuva1 (oʻzb.) (“sopol idish”), kuva2 (oʻzb.) (“kosibchilikda: ogʻir temir asbob); suzgich1 (oʻzb.) (“tozalovchi asbob”), suzgich2 (oʻzb.) (“qalqovich”), suzgich3 (oʻzb.) (“suv qoʻngʻizi”); qin1 (oʻzb.) (“pichoq, qilich gʻilofi”), qin2 (oʻzb.) (“qizlik pardasidagi elastik aʻzo”).

2. Har har shevalarda qoʻllaniladigan dialektal soʻzlar omonimik qatorni tashkil qiladi: juvda1 (shv.) (“tuyaning boʻyni va tizzasidagi jun”), juvda2 (shv.) (“boltaning sop oʻrnatiladigan tomoni”).

3. Oʻzbek oʻz soʻzlari va boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksik birliklar muayyan omonimik qatorni tuzadi: tos1 (fors.) (“togʻara”), tos2 (oʻzb.) (“oʻtirgan kishilar guruhi”), tos3 (oʻzb.) (“parcha, kimxob”), tos4 (oʻzb.) (“boshning sochsiz yeri”), qullob1 (arab.) (“qisqich, changak”), qullob2 (oʻzb.) (“belbogʻ”), sir1 (arab.) (“oʻzgalarga nomaʼlum boʻlgan biror ish, gan, narsa va b.”), sir2 (oʻzb.) (“yaltiroq mineral”), sir3 (rus.) (“pishloq”), idish1 (oʻzb.) (“uy-roʻzgʻor yoki xoʻjalik buyumi”), idish2 (nemis.) (“yevropalik yahudiylarning aloqadorlashuvida qoʻllanuvchi til”).

3. Har xil tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar oʻzaro omonimik qatorga birlashadi: dabba1 (arab.) (“churra kasalligi”), dabba2 (fors.) (“yogʻ saqlashga moʻljallangan xum”), yom1 (moʻgʻ.-turk.) (“ot almashtiradigan joy”), yom2 (fors.) (“katta xum”).

4. O'zbek tiliga aniq bir tildan o'zlashtirilgan so'zlar o'zaro omonimik qatorni tashkil etadi: dam1 (fors.) ("nafas, tin"), dam2 (fors.) ("lahza; payt"), dam3 (fors.) ("temirchilarning charmdan ishlangan asbobi"), dam4 (fors.) ("chet, qirg'oq"), dam5 (fors.) ("asbobning kesadigan, o'tkir tomoni"); dupoya1 (fors.) ("yamoqchi ustalarning uchi qayrilgan temir asbobi"), dupoya2 (fors.) ("miskarlik ishlatiladigan sandonning uzun, dumli turi"), titan1 (yunon.) ("kimyoviy element"), titan (yunon.) ("suv qaynatadigan katta idish"), kub1 (yunon.) ("geometrik shakl; shunday shakldagi narsa"), kub2 (yunon.) ("silindr shaklidagi katta yopiq, idish").

5. O'zbek adabiy tiliga mansub so'zlar va dialektal leksik birliklar o'zaro omonimik qatorni tashkil qiladi: cho'lpil (o'zb. adabiy) ("ayollarning kumush yoki oltindan yasalgan ziynat buyumi"), cho'lpil2 (shv.) ("chovlisimon savatcha"), qaloq1 (o'zb. adabiy) ("burunda qotib qolgan mishiq"), qaloq2 (shv.) ("chilcho'p"), surgil (o'zb. adabiy) ("ichni yumshatadigan dori-darmon"), surgil2 (shv.) ("yuz-qo'l artadigan sochiq").

### Xulosa

Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, omonimiya hodisasining universal xususiyatiga qaramay, uning ko'rinishlari va dominant modellari ingliz va o'zbek tillarida sezilarli darajada farq qiladi. O'zbek tilining ushbu tematik guruhida omonimlarning chastotalik darajasi yuqori. Ingliz tili oshxona anjomlari nomlarining boshqa so'zlar bilan omonimik munosabati son jihatdan o'zbek tiliga nisbatan kamroq. Har ikkala tilda ham omonimik qatorlar talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lgan o'z leksik elementlar va o'zlashma so'zlarning kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan. Ingliz tilida omonimiya ko'pincha konversiya, ya'ni so'zning hech qanday o'zgarishsiz bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish yo'li bilan (plate (tarelka) — plate (metall listi (taxtasi) bilan qoplamoq), turli tillardan fonetik shakli mos keladigan o'zlashmalar (masalan, jar (banka) — arab tilidan, jar (turtki) — o'z so'zi), shuningdek, so'zni qisqartirish (butt1, butt2 va butt3 (inglizcha "cigarette butt" iborasining qisqartmasi) orqali shakllanadi. O'zbek tilining agglyutinatив tuzilishiga ko'ra, unda omonimiya ko'proq o'zak morfemalarning bir-biriga mos kelishi natijasida, shuningdek, turli o'zaklarga qo'shilib, omonimik shakl hosil qila oladigan affikslarning ko'p ma'noliligi tufayli yuzaga keladi (suzgich<sup>1</sup>, suzgich<sup>2</sup> va suzgich<sup>3</sup>).

### Фойдаланилган адабиётлар

- Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. — Тошкент: Фан, 1981. — 114 б.
- Бакиров П. Современный русский язык. Лексикология. Учебное пособие. — Термез: ИПЦ ТерГУ, 2022. — 188 с.
- Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. — Самарканд, 2017. — 47 б.
- Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. — Ташкент: Фан, 1991. — 134 с.

- Головня А. И. Омонимия как системная категория языка: монография. — Минск: БГУ, 2007. — 132 с.
- Дадахонова Т. Ўзбек тилида чеварчилик лексикаси. — Тошкент: Фан, 1963. — 80 б.
- Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. — Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956. — 455 б.
- Иванова Е.В. Структурно-семантические и лингвокультурные характеристики англоязычной бытовой лексики (на материале лексико-семантической группы «посуда»): Дис. ... канд. филол. наук. — Самара, 2011. — 249 с.
- Инч А. 1000 правил сервировки и столового этикета. Безупречные рекомендации лучшего английского дворецкого. — М.: АСТ: Астрель, 2010. — 159 с.
- Исмоилов И., Мелиев К. ва бошқалар. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (Мевали дарахт, полиз экинлари номлари ва уй-рўзғор буюмлари лексикаси материаллари асосида). — Тошкент: Фан, 1990. — 259 б.
- Маматқулова Ф.А. Тилшуносликда кулинаронимларнинг лингвокультурологик ўрганилиши // Сўз санъати халқаро журнали / Международный журнал искусство слова / International journal of word art. Серия «Филология. Социальные коммуникации». — 2021. — № 3. — Б. 212–218.
- Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 127 б.
- Ооржак А.Ч. Лексика посуды и домашней утвари в тувинском языке и его диалектах: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Москва, 2022. — 26 с.
- Сафаров Ш. Тилшунослик терминлари. — Тошкент: Lesson press, 2023. — 356 б.
- Турсунов Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. — Тошкент: Фан, 1978. — 138 б.
- Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарақ маиший лексика. — Тошкент: Фан, 1990. — 231 б.
- Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). — Тошкент: Yangi nashr, 2010. — 159 б.
- [https://aksinia.ru/company/news/istoriya\\_kukhonnoy\\_utvari/](https://aksinia.ru/company/news/istoriya_kukhonnoy_utvari/)

### References

- Aksinia. *Istoriya kukhonnoy utvari* (History of kitchen utensils). Retrieved from [https://aksinia.ru/company/news/istoriya\\_kukhonnoy\\_utvari/](https://aksinia.ru/company/news/istoriya_kukhonnoy_utvari/)
- Asomidinova, M. (1981). *Kiyim-kechak nomlari* (Clothing names). Toshkent: Fan.
- Bakirov, P. (2022). *Sovremennyy russkiy yazyk. Leksikologiya* (Modern Russian language. Lexicology), Termez: IPTs TerGU.
- Berdiev, X. X. (2017). *O'zbek tilining o'tovsozlik leksikasi* (Yurt-building lexicology of the Uzbek language) (PhD dissertation abstract). Samarqand.
- Dadakhonova, T. (1963). *O'zbek tilida chevarchilik leksikasi* (The lexical field of sewing and embroidery in Uzbek). Toshkent: Fan.

- Fayzullaeva, M. (2010). *O'zbek taomlari bilan bog'liq an'analar* (Surxon vohasi misolida) (Traditions associated with Uzbek cuisine (on the example of the Surkhan oasis)). Toshkent: Yangi nashr.
- Gafurova, L. X. (1991). *Bytovaya leksika sovremennogo uzbekskogo yazyka* (The household lexicon of contemporary Uzbek). Toshkent: Fan.
- Golovnya, A. I. (2007). *Omonimiya kak sistemnaya kategoriya yazyka: monografiya* (Homonymy as a systemic category of language: Monograph). Minsk: BGU.
- Ibrohimov, S. (1956). *Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi* (Professional lexicon of Fergana dialects). Toshkent: O'zFA nashriyoti.
- Inch, A., & Hirst, A. (2010). *1000 pravil servirovki i stolovogo etiketa. Bezuprechnye rekomendatsii luchshego angliyskogo dvoretskogo* (1000 rules of table setting and table etiquette. Flawless recommendations from the best English butler). Moskva: AST: Astrel.
- Ismoilov, I., Meliev, K., & others. (1990). *O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot* (Research from the lexicon of the Turkic languages of Central Asia and Kazakhstan). Toshkent: Fan.
- Ivanova, E. V. (2011). *Strukturno-semanticheskie i lingvokulturnye kharakteristiki angloyazychnoi bytovoi leksiki* (Structural-semantic and linguacultural characteristics of English-language everyday vocabulary (PhD dissertation). Samara.
- Mamatqulova, F. A. (2021). *So'z san'ati xalqaro jurnali*, International Journal of Word Art, (3), 212–218.
- Ne'matov, H., & Rasulov, R. (1995). *O'zbek tili sistem leksikologiya asoslari* (Fundamentals of systemic lexicology of the Uzbek language). Toshkent: O'qituvchi.
- Oorzhak, A. Ch. (2022). *Leksika posudy i domashnei utvari v tuvinskom yazyke i ego dialektakh* (Lexicon of dishes and household utensils in the Tuvan language and its dialects) (PhD dissertation abstract). Moskva.
- Safarov, Sh. (2023). *Tilshunoslik terminlari lug'ati* (Dictionary of linguistic terms). Toshkent: Lesson Press.
- Tursunov, T. (1978). *O'zbek tili amaliy san'at leksikasi* (Lexicon of applied arts of the Uzbek language). Toshkent: Fan.
- Usmanova, Sh. (1990). *Oltay tillarida mushtarak maishiy leksika* (The mutual household lexicon in Altaic languages). Toshkent: Fan.